

**“BOSHLANG’ICH SINFLARDA TEKNOLOGIYA DARSALARINI
INTEGRATSION TASHKILLASHTIRISH VA ZAMONAVIY
METODLARDAN FOYDALANISH”**

To’xtasinova Shahnoza Sharobiddinovna

*Namangan viloyati uchqo’rg’on tumani 28- sonli umumiy o’rta ta’lim
maktabinin boshlang’ich sinf o’qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi rivojlanib borayotgan kundagi texnologiya darslari haqida umumiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimiz tutgan o’rni ,yosh avlod kelajagiga ta’siri va texnologiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish haqida fikrlar maqolada keng yoritiladi.

Kalit so’zlar: texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya,dizayn,zamonaviy darslar.

Bolalarni yoshlik chog’idan boshlab tevarak-atrofdagi moddiy ne’matlarga, buyumlarga nisbatan ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo’lishga, har qanday moddiy ne’mat inson mehnatining mahsuli ekanligini va uni asrab-avaylashga o’rgatib borish zarur. Bolaning jamoatchilik va shaxsiy buyumlarga bo’lgan munosabati ilk yoshlik chog’idanoq oilada, oila a’zolarining shaxsiy va jamoatchilik mulkiga bo’lgan munosabatidan boshlanadi. Albatta, yosh avlodda tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlarni shakllantirmasdan turib barkamol shaxsni tarbiyalab bo’lmaydi. Chunki aynan shu sifatlarda bolaning inson mehnati mahsuliga, jamoatchilik mulkiga to’g’ri munosabati, uni asrabavaylash, boyitishga hissa qo’shish istagi yotadi. O’sib borayotgan yosh avlodda bunday sifat va fazilatlarni shakllantirish ko’p jihatdan o’qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik mahoratni qay darajada egallaganligiga bog’liqdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo’lini qat’iy davom ettiramiz mavzusida nutq so’zladi: «Yosh avlodimizga – mening o’g’il-qizlarimga qarata aytmoqchiman: tomirlarida buyuk bobolarimizning g’ayrat-shijoati jo’sh urib turgan aziz farzandlarim, sizlar Yangi O’zbekistonni barpo etishda doimo oldingi safda bo’lasizlar, deb ishonaman.[1]» – deb so’zladi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev.

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o’rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o’rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo’lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko’nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o’zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro‘zg’or buyumlarini ta’mirlashga oid ko’nikma va

malakalarga ega bo'lasiz. Bu maqolada o'quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo'ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o'tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umummehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rinn tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko'nikmalarining zaruratini yanada oshirmoqda. Ijodkorlik – bu yangi g'oyaga asoslangan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo'lib bormoqda. Sizni o'rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlartomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrli boshqa ne'matlar yaratilgan. Siz ham kelajakda voyaga yetib, tanlagan kasbingizni mukammal egallab, bu taraqqiyotga o'z hissangizni qo'shasiz deb umid qilamiz. Bu vazifalarni uddalashingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz. Asosiy qism: Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarini qo'llashning asosiy bo'limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishlari berilgan. Siz ulardan birini to'liq o'rganasiz. Shuni e'tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishlarini o'rganayotgan o'quvchilar ham o'rganadilar. Siz mashg'ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko'plab sohalarga oid kasbhunar turlari bilan tanishasiz. Kelajak hayotingizda shu kabi kasbhunarlardan birini egallab, o'z sohasining mohir ustasi bo'lib yetishasiz. Bu bilan siz jamiyatimiz ravnaqi uchun o'z hissangizni qo'shasiz. Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogic texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta'riflar beriladi. Menimcha, avvalo «texnologiya» so'zining ma'nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so'zining grek tilidan tarjimasi tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zida uni «texno» - hunar yoki san'at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san'ati haqidagi fan sifatida e'tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo'lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta'limi» o'quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta'lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblayman. Bundan tashqari, o'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida

ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasbhunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari: materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida texnologiya fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" yo'nalishlarida o'qitiladi. Darhaqiqat, integratsiyaning asosini fanlararo aloqa tashkil etadi va integratsiya g'oyasida o'z rivojlanishini topadi. Integratsion mazmundagi fanlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislarning bilimlari, ish usullari, shaxsiy fazilatlari yaxlitligini ta'minlaydigan omil sifatida qaraladi.[2]

Maktabdag'i o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul - metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi. Pedagogik amaliyotda o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hakozolar hisobga olinadi. Metod va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq

bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda va mazmunini umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Garchi har bir o'qitishning ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish-o'rganish diqqat e'tiborni talab qiladigan, murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishdir. O'qitish usullariga muayyan talablar qo'yiladi: - o'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim;

- o'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi;

- o'qitishning tizimligi uning samaradorligini belgilaydi;

- o'qitish metodining tushunarligi o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarur;

- o'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir;

- bilimlarni puxtaligi va asosligi;

- o'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning ob'ektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad yaroqsizligini, yo bo'lmasa, bu holatda uni umuman noto'g'ri qo'llanganligini e'tirof etish lozim. O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Tafakkur, xotira, diqqat va hayolning alohida operatsiyalarni tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

2. O'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollandash-tiradigan usullar;

3. Nazorat va o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat usullari;

4. O'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

Ta’limda interfaol metod - bu o’quvchi bilan o’qituvchi o’rtasida ta’limni o’zlashtirish munosabatlarini kuchaytirishi, faollashtirish demakdir. Bugun fan, texnika va san’at jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o’tish davrida, ijtimoiy holat o’zgarayotgan davrda maktablarda ta’limni xususan, boshlang’ich ta’limni mazmun jihatidan yangicha o’qitish zarurat va zamon talabidir. Integrativ ta’limni yo’lga qo’yishdan oldin, uning tasnifi-integrativ ta’limni sinflarga bo’linishi (klassifikatsiya) borasida ma’lum tushuncha hosil qilish lozim bo’ladi. Pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonovada bu tasnif quyidagicha ifoda etiladi:[3] chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar; asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar; umumiyl ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar; fan evolyutsiyasi bilan bog’liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o’rganish uslublari, olamning ilmiy ko’rinishini o’rganish asosidagi kurslar; kompleks ob’ektlar asosida; turli muammolar asosida va faoliyat asosida. [9]. Boshlang’ich sinf o’qituvchisining texnologik tayyorgarligi boshlang’ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Umumiyl o’rta ta’lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

- Muammoli o’qitish texnologiyasi
- O’yinli texnologiyalar
- Tanqidiy fikrlashni o’stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar
- Hamkorlikda o’qitish texnologiyalari
- Modulli texnologiyalar
- O’qitishning tabaqalashtirilgan va induvidual texnologiyasi
- O’qitishning jadallashtirish texnologiyasi
- Programmalashtirilgan o’qitish texnologiyasi va bir qancha texnologiyalardir.[4] Bu texnologiyalarni alohida ko’rib chiqamiz:

O’yinli texnologiyalar O’yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o’quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O’yin olimlar tadqiqotlariga ko’ra mehnat va o’qish bilan birligida faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O’yinli faoliyat muayyan vazifalarini bajarishiga bag’ishlangan bo’ladi. Ular quyidagilar: - maftunkorlik - o’z imkoniyatlarini amalga oshirish - davolovchilik - kommunikativlik -tashxis - millatlararo muloqat - ijtimoiylashuv O’yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakter «ijod maydoni»ga ega bo’ladi. Tatqiqotchilar o’yinga faoliyat, jarayon va o’qitish metodi sifatida qaraydilar. O’yinlar turli maqsadlarga yo’naltirilgan bo’ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta’lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo’llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. We will resolutely pursue the path of democratic reforms on the basis of the new development strategy of Uzbekistan. Speech by the newly elected

President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the joint session of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dedicated to the inauguration ceremony. November 6, 2021.

2. Narbutaev Hushbak Babanazarovich. Technology of organization of integrated lessons in teaching biology. European journal of research and reflection in educational sciences. Volume 8, Number 2, 2020
3. Yakibov Sharif, Yakibova Dilorom. Integration in Primary Education as Factor Mentality. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-9 Issue-1, October 2019.
4. X. Sanakulov, D. Yakubova, R. Lutfitdinova. Technology and its teaching methods. Textbook. - Tashkent: Tafakkur Bostoni, 2020.- 224 p. \
5. Yakibova Dilorom Sharifovna. Methods for enhancing the creative thinking of primary schoolchildren. Herakd pedagogiki. Nauka i Praktyka (wydanie specjalne). ISSN: 2450-8160, 2021, 247-256-pages.
6. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva, M.Satbayeva. Work and Teaching Methods [Text]:Textbook / X.Sanaqulov and.- Tashkent: Thinking Bust, 2015.
7. Shestakevich I.M. Methods for enhancing the creative thinking of junior schoolchildren. Moscow, 2012.
8. Ivanchenko S.A. The development of students' creative abilities as a way to form a spiritually rich, creatively thinking personality. Biysk, 2006
9. I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimova. Technology. Textbook for 4th grade of general secondary schools.-Tashkent: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2017.
10. Sanakulov H.R., Khodiyeva D.P. Paper practice i